



ISSN: 2181-1784  
SJIF 2022= 5.947  
ASI-Factor = 1.7



TOGETHER WE REACH THE GOAL



# ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,  
natural and social sciences*

[www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)

*Exact sciences*

*Natural sciences*

*Engineering sciences*

*Pedagogical sciences*

*Social and Human sciences*

*Philological sciences*

*Philosophy sciences*

*Economic sciences*

VOLUME 2

**No7**  
**2022**



**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,  
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOLUME 2, ISSUE 7**  
**ISSN 2181-1784**  
**Impact Factor: 5.947**  
**ASI Factor = 1.7**

**July**  
**2022**

---

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL  
AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL**

---

**EDITOR-IN-CHIEF**

**Dr. KADIROV MUKHAMMADJON**

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of  
“Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

**EDITORIAL BOARD**

**Dr. Y. KURAMBOEV**

Doctor of Medical Sciences,  
Associate Professor of the 2nd Department of  
Medical Biological Sciences at the Termez  
branch of TTA

**PhD. SUHROB M. BURONOV**

Doctor of Philosophy (PhD) In Political Sciences,  
Lecturer of the Department of Oriental Politics  
and International Relations, Tashkent State  
University of Oriental Studies

**Dr. ZAMIRA A. NUROVA**

Candidate of Biological sciences  
Associate professor of Termez branch of the  
Tashkent Medical Academy

**Dr. SANAM J. AKHMEDOVA**

Candidate of Philosophical Sciences Senior  
Lecturer of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Prof. Dr. NAZIRILA N. MAHMUDOV**

Doctor of technical sciences  
Dean of the Faculty of Engineering Technology  
of Tashkent State Technical University

**Prof. Dr. ULFATKHON MUHIBOVA**

Doctor of Philological Sciences  
Head of the department of South and Southeast  
Asian Languages of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Prof. Dr. SULTON F. AMIROV**

Doctor of technical sciences  
Head of the department of Electricity Supply of  
Tashkent State University of Transport

**Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV**

Doctor of Philological Sciences  
Head of the Department of Uzbek Linguistics of  
Tashkent State University of Uzbek Language and  
Literature named after Alisher Navoi

**PhD. AZIZA A. SHAYUSUPOVA**

Candidate of Pedagogical Sciences Associate  
professor of the department of Pedagogy and  
Psychology of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Dr. IMAM K. WAHYUDI**

Doctor of Philosophy (PhD)  
in Philological Sciences  
Head of Office of International Affairs and  
Faculty Member, Faculty of Teacher Training and  
Education of Universitas Islam Malang, Indonesia



**CONTENT / СОДЕРЖАНИЕ / MUNDARIJA**

<b>Хайдарова Дж.</b> // <i>Основные направления международного сотрудничества Индии и стран Центральной Азии</i> .....	<b>11</b>
<b>Sadikova M.K.</b> // <i>Hind xalqi dohiysi Mahatma Gandining hindiy tili rivojiga qo'shgan hissasi xususida</i> .....	<b>22</b>
<b>Burxonov O'.</b> // <i>Arabizmlarning ispan tili leksikasiga o'zlashganlik tarixiga doir</i> .....	<b>27</b>
<b>Умарова О.Н.</b> // <i>Биологическое лечение пульпита у детей</i> .....	<b>35</b>
<b>Bozorov M.M.</b> // <i>Jinoyat huquqida jazoni og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llashni takomillashtirish masalalari</i> .....	<b>46</b>
<b>Sultonov Sh.E.</b> // <i>Pedagogikada kompetensiya tushunchasi</i> .....	<b>55</b>
<b>Sultonov Sh.E.</b> // <i>Pedagog-kadr kompetensiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash zaruriyati sifatida</i> .....	<b>60</b>
<b>Kayumova S.T.</b> // <i>Proverbs and subjects of the folk, using them in the lesson process</i> .....	<b>64</b>
<b>Муриддинов Н.</b> // <i>Тижоратчи юридик шахсларни тугатиш тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари</i> .....	<b>69</b>
<b>Файзиев Ж.Н., Хайитов Ж.К., Бобожонов О.Х.</b> // <i>Узумнинг истиқболли шаробдон рангдор ва олтиндай навлари ҳосилдорлиги ва сифатига хомток меъерининг таъсири</i> .....	<b>79</b>
<b>Мамадалиева С.В., Гуломов Ф.У., Усмонов Х.Ф., Рожин Т.Д., Шарафутдинов Ш.Д.</b> // <i>Кислотная активация глинистых адсорбентов, используемых при очистке парафинов</i> .....	<b>87</b>
<b>Akbarova M.I.</b> // <i>The use of modern educational technologies in English lessons</i> .....	<b>95</b>
<b>Ikramova I.R.</b> // <i>Sharq peripatetiklarining naturfalsafiy qarashlari</i> .....	<b>102</b>
<b>Ismatullayeva M.X., Nurmatov S.S.</b> // <i>Hindiy tili so'z yasallishida sanskritcha suffikslarning ahamiyati</i> .....	<b>109</b>
<b>Беккулов Э.</b> // <i>Амир Ҳамзаҳ ижодининг индонез – малай адабиётидаги аҳамияти</i> .....	<b>119</b>
<b>Мустафаев У.У., Жўраев А.Н.</b> // <i>Янги Ўзбекистон: қадриятларни ҳимоялаш - фалсафий фанларнинг долзарб масаласи</i> .....	<b>124</b>
<b>Хайдаров О.Э.</b> // <i>Сурхон воҳаси аҳолисининг ёз ва куз мавсуми билан боғлиқ маросимлари ва урф-одатлари</i> .....	<b>134</b>

<b>Shaymardanov Kh.Kh.</b> // <i>The positive effect of using interactive methods on the education of young people in PPBC (CHQBT) lessons in secondary education</i> .....	<b>552</b>
<b>Turaboyev B.U.</b> // <i>Euler's method</i> .....	<b>556</b>
<b>Shakhnazarov Sh.Kh.</b> // <i>Benefits of morning physical education to the human organism</i> .....	<b>560</b>
<b>Saydalimov S.M.</b> // <i>The importance of vehicle speed assessment in the insurance process</i> .....	<b>564</b>
<b>Qurbonov H.R.</b> // <i>Farg'ona – front ortida: gidroqurilish, agrar inqilob, ateizm va baynalmilallik</i> .....	<b>568</b>
<b>Salimova S.F., Karomova D.Z.</b> // <i>Zoologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda virtual laboratoriya mashg'ulotlarini qo'llash</i> .....	<b>581</b>
<b>Mamurova Kh.A.</b> // <i>Phonotactic phenomenon in English and its linguistic features</i> .....	<b>585</b>
<b>Исматуллаева Х.З., Базарова Н.Б.</b> // <i>Роль педагога в развитии детей с ограниченными возможностями</i> .....	<b>591</b>
<b>Джуманазарова М.М.</b> // <i>Основные принципы формирования инновационных зданий и сооружений в городской среде в условиях Узбекистана</i> .....	<b>604</b>
<b>Садикова М.А.</b> // <i>Способ предиктивной оценки трудных дыхательных путей у больных с послеожоговой контрактурой лица, шеи и грудной клетки</i> .....	<b>607</b>
<b>Khamidov D.Kh.</b> // <i>Production and technology of polymers</i> .....	<b>626</b>
<b>Kulmamatova D.E.</b> // <i>No'xat o'simligi navlarining hosildorligini oshirishda fotosintetik pigmentlarning ahamiyati</i> .....	<b>630</b>
<b>Misirov Z.Kh., Beknazarov Kh.S.</b> // <i>Study of the inhibiting efficiency of PKA-1 male corrosion inhibitor in hydrogen sulfide environment</i> .....	<b>633</b>
<b>Normuratova G.</b> // <i>Biologiya darslarida o'quv filmlardan foydalanish</i> .....	<b>640</b>
<b>Nosirova D.N.</b> // <i>Xorijiy tillarni o'rganishda o'qish, tinglash, yozish va gapirishning afzalliklari</i> .....	<b>648</b>
<b>Утаева И.Б.</b> // <i>Грамматик тушунчаларни ўзлаштириши жараёнида талабаларнинг билим олиши мустақиллигини ривожлантириши модели</i> .....	<b>656</b>
<b>Soatova G.N.</b> // <i>«Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalidagi tarjima asarlarda asliyat manbaning saqlanish darajasi (1925-1929 yillardagi sonlari asosida)</i> .....	<b>665</b>
<b>Xamidov M.A.</b> // <i>Surxondaryo o'zbek shevalariga doir ayrim paremlar tahlili</i>	<b>676</b>

**«MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI» JURNALIDAGI TARJIMA  
ASARLARDA ASLIYAT MANBANING SAQLANISH DARAJASI  
(1925-1929 YILLARDAGI SONLARI ASOSIDA)**

**Soatova Gulzoda Nurmamat qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek  
tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti  
soatovagulzoda001@gmail.com

Tel: +99897 749 69 84

UO‘K: 821.512.133.09:070 821.512.133-92

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali haqidagi ma‘lumotlar bilan boshlanadi. Jurnaldagi adabiyot materiallari berib boriladigan bo‘limlar borasida fikr yuritiladi. Jurnalning 1925-1926-yillarida qancha tarjima asarlari yoritilganligi, tarjima asarlar nashr etishda qaysi ijodkorlar faol bo‘lganligi keltiriladi. Ulug‘ vatan urushidan so‘ng yurtimizda tarjima asarlarining yoritilishi, o‘zbek asarlariga rus tarjimonlarining qiziqishi, o‘zbek tilidan rus tiliga qilingan tarjimalar, rus, hind, tatar, tojik tilidan rus tili orqali qilingan tarjima asarlari haqida ma‘lumotlar beriladi. Shuningdek, maqolada, asliyat manba bilan tarjima asarlari, bunda originallikning saqlanish darajasi, amal qilinadigan qoidalar o‘z aksini topadi. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 9-10-qo‘shma sonida berilgan Lermantovning G‘ozi Olim tomonidan tarjima qilingan “Ymëc” she‘ri va 1926-yil 1-,2-,3-sonlaridagi Gogolning Saidaxmad Siddiqiy tarjimasida berilgan “Shinel” hikoyasi keltirilib, asliyat manba va tarjima asar o‘rtasidagi farqlar, yutuq va kamchiliklar ko‘rsatiladi. Ushbu asarlarning asliyat manbada qanday berilganligi, asliyatdagi ma‘no, adibning hissiyotlari, ko‘zlangan maqsad tarjimada qay darajada saqlanganlik darajasi muhokama etiladi. Jurnalda berilgan boshqa tarjima asarlari, ularning qahramonlari haqida qisqacha ma‘lumot berib o‘tiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Maorif va o‘qitg‘uvchi, tarjima asarlar, asliyat manba, utyos, shinel, ma‘no.*

**ABSTRACT**

*This article begins with information about “Education and teacher” magazine. There is an opinion about the departments in the magazine where literary materials are given. How many translated works were published in the magazine in 1925-1926, and which artists were active in publishing translated works. After the Great Patriotic War, information is given about the coverage of translated works in our*

country, the interest of Russian translators in Uzbek works, translations from Uzbek into Russian, works translated from Russian, Hindi, Tatar, Tajik through Russian. Also, in the article, translated works with the original source, the level of preservation of originality, the applicable rules are reflected. Lermantov's poem "Utyos" translated by Ghozi Olim, published in the 9-10 joint issue of "Education and teacher" magazine, and Gogol's translation by Saidakhmad Siddiqi in issues 1, 2, 3 of 1926. "Shinel" story is given, and the differences, achievements and shortcomings between the original source and the translated work are shown. How these works are presented in the original source, the original meaning, the feelings of the writer, and the extent to which the intended purpose has been preserved in the translation are discussed. Brief information about other translated works and their characters is given in the magazine.

**Keywords:** Education and teacher, translated works, original source, utyos, coat, meaning.

## **KIRISH**

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali 1918-1919- yillarda faoliyat olib borgan "Maorif" jurnalining mantiqiy davomidir.<sup>370</sup> Ushbu jurnal oyda bir marta chiqqan siyosiy, ta'lim-tarbiyaviy, adabiy, ilmiy, fanniy jurnal deb aytilsada, ammo unda adabiy materiallar asosiy o'rinni egallaydi. Jurnal bo'limlaridan "Adabiyot", "G'arb adabiyoti", "Adabiy taftishlar", "Bolalar adabiyoti" ruknlari to'lig'icha adabiyot materiallarini yoritisa, "Tanqid va kitobiyot", "Tarjimayi hol" ruknlarida esa qisman adabiy maqolalar berib borilgan. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida qaynoq she'rlar, turli mavzulardagi hikoyalar, tanqidiy maqolalar hamda "G'arb adabiyoti", "Adabiyot" ruknlarida esa tarjima asarlar ham muntazam berib borilgan. Qardosh xalqlar va chet el adabiyotidan namunalar keltirilgan. Jurnalda berilgan tarjima asarlari o'z davrida faqat O'zbekistondagi muhit haqida emas, balki rus, hind, xitoy, qozoq, qirg'iz, tatar kabi millatlarning adabiy, siyosiy, iqtisodiy ahvoli haqida so'zlaydi.

Statistik ma'lumotlarga keladigan bo'lsak, "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida 1925-1929- yillarda nashr etilgan tarjima asarlari Mahmud Suboy, Ziyo Usmoniy, Y.Omon, Bayish, Qaysar Hikmat, Oston, Amala Xonim Hayosiy, Uchqun, Jo'raboiev, Cho'lpon, Siddiqiy kabi ijodkorlar tarjimasida jami 27 tani tashkil etadi.

<sup>370</sup> Professor Naim Karimov bilan olib borilgan suhbatdan

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

Ulug' vatan urushidan keyingi davr tarjimachiligi rivojida o'zbek tilidan rus tiliga qilingan tarjimalarning o'zni katta bo'ldi. Navoiy asarlarining Penkovskiy, S.Ivanov, V. Derjavinlar tomonidan rus tiliga tarjima qilinganligi bunga misoldir. Shundan keyin tarjima san'atining saviyasi va sifatiga e'tiborli bo'lish ehtiyoji tug'ildi. Bu esa "Tarjimashunoslik fani" dek yangi bir sohaning vujudga kelishi va rivojlanishiga sabab bo'ldi. Aslida, O'zbekistonda tarjima san'ati 30- yillardan boshlangan. Shu yillarda o'zbek tilida nashr bo'lgan "Maorif va o'qitg'uvchi", "Yer yuzi", "Sharq yulduzi" jurnallari va ayrim gazetalarda tarjima asarlarning rivojiga bag'ishlangan taqrizlar, dadil tanqidiy fikrlar berilgan maqolalar chop etildi. Tarjima asarlarining aksariyati rus tilidan tarjima qilingan. Buni Cho'lpon "Suba" asari tarjimasida ham ta'kidlaydi.

Jurnalda berilgan tarjima asarlarida aslyat manbaning saqlanish darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo, aslyat manba, matn va uning xususiyatlari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishimiz lozim. Aslyat manba bu – tarjima qilinajak asarning matnidir.

"Matn deganda, muallif ijodi mahsuli bo'lgan fikr va g'oyaning yozuvdagi in'ikosi (tekst) tushuniladi...Matnshunoslik matn tarixi ustida ish olib borishi bilan birga matnning implitsit va eksplitsit ma'nolari tahlili va muallif talqini asoslarini, lingvistik va stilistik unsurlarini kompleks o'rganadi"<sup>371</sup>. Shunday ekan tarjima asarlar ham matndir. U tarjima qilish jarayonida qanday o'zgarishlarga uchragan? Asarning asl mohiyati saqlanganmi yoki yo'q? Agar o'zgarishga uchragan bo'lsa qaysi tomonlama? Ushbu savollarga ish davomida javob berishga harakat qilamiz.

"Matnshunoslik tarixiy va ilmiy manbashunoslik predmeti va vazifalarini ham o'z vazifasi deb bilgan holda, tarjima matn bo'ladigan bo'lsa, uning ekvivalentlik darajasini tekshirish, matnning yaratilish davridan bugungacha qo'lyozmadan qo'lyozmaga ko'chib o'tish jarayonida lingvistik o'zgarishlarga uchrash, matn variantlarining paydo bo'lish sabablarini aniqlash va muallif variantini saqlab qolmagan taqdirda, asarning dastlabki ko'rinishiga yaqin matnni tuzishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi"<sup>372</sup>.

## **NATIJALAR**

Tarjima ustozlar ta'biri bilan aytganda millatlararo ko'prikdir. Usiz butun dunyo har bir soha taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Sohaning murakkabligi va

<sup>371</sup> Sirojiddinov S. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – B.9-10.

<sup>372</sup> Qarang: shu manba 14-bet



muammolari o‘zi kabi qadimiy va muttasil izlanishni talab qiladi. Bu borada esa faqat o‘zimizning tarjimonlarimiz emas, balki boshqa davlatlar tarjimonlari ijodi bilan tanishish foydadan holi emas. Jurnalda xorijiy adabiyot namunalarini ona tilimizga tarjima qilishda Mahmud Suboy, Cho‘lpon, Erkin, H.Nuri kabi ijodkorlar adabiyot maydonida faol bo‘lishgan. Ayniqsa, Cho‘lpon tarjimasida R.Thokurning “Suba”<sup>373</sup> hikoyasi, Erkin tomonidan tarjima qilingan Lermontovning “Munozara”<sup>374</sup> she‘ri, M.Suboy tarjimasidagi “Istipan Razin”<sup>375</sup> hikoyasi va Z.Usmoniy tarjimasida Xitoy turmushidan olingan “Xun-chi-fu”<sup>376</sup> hikoyalari qahramonlari o‘zlarining metin irodasi, dunyoqarashi va murakkab davr sinovlaridan sabr ila o‘tishi bilan o‘quvchilarni befarq qoldirmagan. “Zero, xorijiy tilni bilib, bu tildagi noyob, klassik asarlarni tushunib o‘qishning o‘zi kishiga zavq beradi, uni o‘z ona tiliga o‘girish esa bu zavqni boshqalar bilan baham ko‘rish demakdir”<sup>377</sup>.

## MUHOKAMA

“Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida 1925-yil<sup>378</sup> da chop etilgan Lermontovning “Lermontovdan” sarlavhali “Qizil Arslon” (G‘ozi Olim Yunusov) tarjimasidagi sakkizligi ham mazkur jurnaldagi tarjima asarlar ichida alohida ahamiyatga ega. Lermontov lirikasidagi bu kichik she‘r namunasi o‘zbek tiliga qanday tarjima qilinganini to‘la tasavvur qilish uchun asl nusxani ham, tarjimani ham butunicha keltiramiz.

### УТЁС

Ночевала тучка золотая  
На груди утеса – великана;  
Утром в путь она умчалась рано,  
По лазури весело играя;  
Но остался влажный след в морщине  
Старого утеса. Одиноко  
Он стоит, задумался глубоко,  
И тихонько плечат он в пустыне<sup>379</sup>.

<sup>373</sup> Thokur R. Suba. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Toshkent, 1925. – № 9-10. – B. 79-86. Tarjimon Cho‘lpon.

<sup>374</sup> Lermantov. Munozara. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Toshkent, 1925. – № 11-12. – B. 85-89. Tarjimon Erkin

<sup>375</sup> Gogol. Stipan Razin. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Samarqand, 1926. – № 5. – B. 29-30. Tarjimon Suboy.

<sup>376</sup> Imzosiz. Xun-chi-fu. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Samarqand, 1927. – № 3-4. – B. 25-28. Tarjimon Ziyoy Usmoniy.

<sup>377</sup> Otaboeva M. Tarjimada muallif uslubini saqlash muammolari. // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022. – № 1. – B. 96.

<sup>378</sup> 12. Lermantov. Lermantovdan. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Toshkent, 1925. – № 9-10. – B. 72.

<sup>379</sup> Лермонтов М.Ю. Поэзия. – Ленинград: Детская литература. 1981, 78с.

Bir oq bulut tunadi,  
Ulug' yerning qo'ynida.  
Erta turib jo'nadi,  
O'ynab tongning nurinda.  
Biroq namli iz qoldi,  
Burushqon yer yuzinda.  
Yolg'iz yer o'yg'a toldi,  
Yosh ko'rindi ko'zinda.

“Утѣс” (“Qoya”) she’ri Mixail Yureyevich Lermontov tomonidan 1841-yilda, fojiali o’limidan bir necha muddat avval yozilgan bo’lib, u butunlay romantik ruh bilan sug’orilgandir. Muallif jonli tabiatni insonga xos bo’lmish yuksak tuyg’ular bilan boyitgan. She’r qisqagina ikki to’rtlikdan iborat bo’lib, unda janub tabiatiga xos tasvir keltiriladi. Ikki asosiy qahramon – qoya va bulut. Bulut obrazi doimo she’riyat va mifologiyada samoviy, inson tushunishga ojiz bo’lgan ilohiy bir timsol sifatida keltirilgan. Qoya obrazi bo’lsa bu she’rda odatiy, dunyoviy bir timsol bo’lib, u oddiy va sodda bir kundalik hayotning qo’l bilan ushlab ko’rish mumkin bo’lgan jismdir. Shunday qilib, Lermontov ushbu she’rida ilohiy va odatiy ikki timsolni bir biri bilan yuzlashtiradi. Shoir fikricha, ilohiy, ma’naviy tuyg’ular hech bir jism bilan uzviy bog’liqlikka qaram emas, ammo material jismlar, kundalik hayot ma’naviyatsiz, ilohiy tuyg’ularsiz ma’nosiz va bo’shdir. Xuddi tana va ruh kabi: ruh tanani tark etishi bilan tana bir bo’shliqqa aylanadi, ruh esa parvozda davom etadi.

Endi esa she’rning asli va o’zbek tilidagi mazkur tarjimasini qiyoslab ko’ramiz va so’zlarning ma’nosi va syujetdagi ma’no haqida to’xtalib o’tamiz.

*Ночевала тучка золотая*

*На груди утѣса великана...*

misralarini tarjimonimiz o’zbek tiliga quyidagicha o’giradi:

*Bir oq bulut tunadi*

*Ulug' yerning qo'ynida...*

Lermontov «тучка золотая» iborasida erkalash suffiksini ishlatadi: туча emas, тучка; «золотая» so’zini esa asl ma’noda “tillo, oltin”, ya’ni qadrli, qimmatli. Yana bir narsaga e’tibor bersak, bulut so’zi ruschada тучка, ya’ni jenskiy rod shaklida kelgan. Lermontov bu ikki personajni ta’riflashda ikki jinsga taaluqli bo’lgan metaforadan foydalanadi: тучка золотая – yarqiroq, qadrli, yoqimli bulutxon; утѣс великан – bahaybat, ulkan, mustahkam qoya. O’zbek tilidagi tarjima avtorini esa bulutni odatiy bir oq bulut ko’rinishida beradi. Qoya o’zbek tilidagi variantda yer shaklida keltirilib, unga ulug’ sifati berildi.

*Утром в путь она умчалась рано  
По лазури весело играя...*

«Умчалась... весело играя» iboralari engillikni, ayollar tabiatiga xos boʻlgan havoyilikni, erkinlikka intilishni anglatsa, oʻzbek tilidagi “joʻnadi” feʻli bu qochirimlardan ancha yiroq. Tarjimonimiz rus tilidagi «лазурь» soʻzini “tong” deb tarjima qilmoqda, vaholangki «лазурь» soʻzi *musaffo osmon, samo* maʼnosida keltiriladi.

*Но остался влажный след в морщине  
Старого утёса. Одиноко  
Он стоит, задумался глубоко,  
И тихонько плачет он в пустыне.*

*Erta turib joʻnadi  
Oʻynab tongning nurinda...*

*Biroq namli iz qoldi,  
Burushqoq yer yuzinda.  
Yolgʻiz yer oʻyga toldi,  
Yosh koʻrindi koʻzida*

Oxirgi toʻrtlikka nazar solsak, bu erda faqat bir qahramon – qoya aks etgan. Lermontov birinchi toʻrtlikda qoya timsolida kuchli, norgʻul, baquvvat, yonidagi ayoli uchun har narsaga qodir kuchli bir erkakni tasvirlagan boʻlsa, ikkinchi toʻrtlikdagi qoya – bu yolgʻizlikdan gʻamga botgan, bagʻridagi ayolidan qolgan taftni asrab, sokin koʻz yosh toʻkayotgan bir qariyaga aylangan. Tarjimonimiz «Старый утёс» soʻz birikmasini “burushqoq yer” soʻz birikmasi shaklida bergan.

Ushbu sakkizlik haqida A. Umarov shunday deydi: “Sheʼr tarjimasini originalidan farq qiladigan tomonlari ham bor. Bu narsa, asosan, “Утес” (“Qoya”ni) “Yer” deb oʻzbekchalashtirishdan kelib chiqqan. Natijada, M.Yu.Lermontov «Утес – великан» va «тучка золотая» orqali erkak va ayolning majoziy obrazini yaratgan boʻlsa, tarjimon ularni “ulugʻ yer” va “oq bulut” deb agʻdarganligi tufayli originaldagi erkak va ayolning visol va hijroni tarjimada ona-bolaning uchrashuv va ayriligʻigʻa oʻxshab qolgan. Lekin originalning ham, tarjimaning ham leytmotivi bitta - insonning bir-biriga vafodorligi masalasini tasvirlash»<sup>380</sup>.

Keyingi hikoya Sayidahmad Siddiq (Ajziy) tarjimasidagi Gogolning «Shinel» hikoyasidir. “Oʻzbek maʼrifatparvar shoiri va yozuvchisi Sayidahmad Siddiq (Ajziy) Gogolning “Shinel” hikoyasini oʻzbek tiliga birinchi marta revolyutsiyadan burunq tarjima qilgan edi. Bu Siddiqiy tomonidan qilingan Gogol asarlarining dastlabki toʻliq tarjimasini edi. Lekin Sayidahmad Siddiqiy tomonidan qilingan bu tarjima chor senzurasining qatʼiyan man qilganligi natijasida oktabr inqilobigacha chop etilmay, u faqat Turkistonda sovet hokimiyati oʻrnatilgandan keyingina jiddiy ishlanib, ilk bor 1926-yili “Maorif va oʻqitgʻuvchi”<sup>381</sup> jurnalida nashr etildi.

<sup>380</sup> Umarov A. 20-yillarda rus adabiyotidan qilingan tarjimalarga doir. Tarjima sanʼati. Maqolalar toʻplami. – Toshkent : Gʻofur Gʻulom, 1973. – B. 195.

<sup>381</sup> Gogol. Shinel. “Maorif va oʻqitgʻuvchi” jurnali. – Samarqand, 1926. – № 1. – B.35-41. Tarjimon Ajziy. Gogol. Shinel. “Maorif va oʻqitgʻuvchi” jurnali. – Samarqand, 1926. – № 2. – B.50-53. Tarjimon Ajziy.

Buyuk rus yozuvchisi, tanqidiy realizm yo‘nalishi asoschisi bo‘lmish Nikolay Vasilevich Gogol qalamiga mansub “Shinel” qissasi 1839-yil yozib bo‘lingan va 1842-yilda chop etilgan «Peterburgskie povesti» (“Peterburg qissalari”) to‘plamiga kirgan. 1902- yilda esa “Shinel”<sup>382</sup> alohida kitob holda nashr etilgan. Qissaning asosiy mavzusi “mayda inson” mavzusi bo‘lib, bundan keyin rus adabiyotida bu mavzu asosiy mavzulardan bo‘lib qoldi. Buyuk rus yozuvchisi Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy bir fransuz jurnaliga bergan intervyusida “Biz hammamiz Gogolning shinelidan chiqqanmiz”<sup>383</sup>, deb ta’kidlagan edi. Xo‘sh, bu qissaning o‘ziga xosligi va boshqalaridan farqi nimada? “Mayda inson” degani nima?

Ushbu qissaning yozilishiga turtki bo‘lgan narsa – bu kichikkina latifa bo‘lib, undagi asosiy qahramon kambag‘al bir chinovnik uzoq vaqt davomida o‘zini barcha narsadan tiyib, iqtisod qilib orzuyidagi miltiqni xarid qiladi. Uzoq kutilgan miltiqni olib ovga borgan chinovnik qayiqda ketayotib bexosdan miltiqni suvga tushirib yuboradi. Bunday g‘amga chiday olmagan chinovnik uyiga kelib, kasal bo‘lib yotib qoladi. Unga rahmi kelgan o‘rtoqlari unga yangi miltiq sovg‘a qiladilar. Ushbu latifani eshitgan Gogol yangi asar ustida ish boshlashga jazm etadi<sup>384</sup>.

Saidahmad Siddiqiy tarjimasidagi “Shinel” qissasining ba’zi o‘ziga xos tomonlariga ahamiyat berib chiqamiz. Uzoq vaqt mobaynida Rossiyada yashagan, tarjimon bo‘lib faoliyat yuritgan va rus tilini mukammal bilgan Saidahmad Siddiqiy rus ma’muriy tizimiga oid atamalar, rutbalar nomlanishi va turmush tarzi bilan bog‘liq atamalarni juda katta aniqlik va ustalik bilan ishlatadi.

*“...Bir departament mahkamasida bir chinovnik (mulki rutbalik) bir kishi xizmat qilur edi. Chinovnik rutbasi ancha ulug‘ va e’tiborlik degudek mansab emas. Shul chinovnik kishi pakana bo‘ylik, yuzi cho‘tir, malla, ko‘zga ko‘rinishda so‘qirmonand, chekkalariga burma-burma xatlar surtilgan bir tusda kasalga o‘xshash edi. Rutbasi esa umri mustasharliq(вечный титулярный советник) edi...”*

Parchadan yaqqol ko‘rinib turibdiki, Saidahmad Siddiqiy o‘z tarjima asarlarida XX asr boshi davridagi o‘zbek adabiyotiga, uning yorqin namoyondalari bo‘lmish Abdulla Qodiriy, Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon kabi buyuk yozuvchi va shoirlarimiz kabi sodda, ravon, oddiy halqqa tushunarli bo‘lgan so‘z va iboralardan foydalanadi (*izzat-*

Gogol. Shinel. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Samarqand, 1926. – № 3. – B.22-23. Tarjimon Ajziy.

<sup>382</sup> Гогол. Шинель. – Петербург: Народная польза, 1902. – Б.1-36.

<sup>383</sup> Гоголь.Н.В. «Шинель»:сюжет и краткое содержание по частям повести. //Сезоны года журнал – Петербург: История создания, <https://сезоны-года.рф>.

<sup>384</sup> Гоголь.Н.В. «Шинель»:сюжет и краткое содержание по частям повести. //Сезоны года журнал – Петербург: История создания, <https://сезоны-года.рф>.



*ehtrom, chibin dahlizdan uchib ketgandek, bir kalima so‘z aytmas, uning tumshug‘iga tashlab ketar, masxaralash, o‘z holimga qo‘ying...).*

Ammo bu parchada ham bir noaniqlik borki, unga e‘tibor bermaslikning iloji yo‘q. Ushbu parchada keltirilgan: «... *про его хозяйку, семидесятилетнюю старуху, говорили, что она бьёт его, спрашивали, когда будет их свадьба,*» gaplarga nazar solsak, muxtaram tarjimonimiz bu erda juz‘iy bir xatoga yo‘l qo‘yganlar. «O‘z oldida uning tarjimai holidan va 70 yashar xotinidan hikoyalar boshlar va unga: “*Sizni xotiningiz urar ekan*”, “*Siz qachon to‘y bo‘lasiz?*” deb boshidan qog‘oz parchalarini sochib... «*Его хозяйка, семидесятилетняя старуха*» degani, Akakiy Akakiyevich ijara turgan uyning bekasi, 70 yoshli kampir haqida gap borgan. Tarjimonimiz *хозяйка - beka* so‘zini *xotin* so‘zi bilan almashtirib yuborganlar.

Diqqatimizni tortadigan yana bir parchada bosh qahramonimizning gapirish uslubining o‘ziga xosligi keltiriladi. Gogolning mahoratini qarangki, o‘zini “mayda odam” deb hisoblovchi bosh qahramonimiz, mayda chinovnik bo‘lgan Akakiy Akakiyevichning gap-so‘zlari ham o‘ziga o‘xshash mayda, yarim-yorti, kalta va tushunarsiz jumalardan tashkil topgan:

«... *А я вот к тебе, Петрович, того...Нужно знать, что Акакий Акакиевич изъяснялся большею частью предложениями, наречиями и, наконец, такими частицами, которые решительно не имеют никакого значения. Если же дело было очень затруднительно, то он даже имел обыкновение совсем не оканчивать фразы, так что весьма часто, начавши речь словами: «Это, право, совершенно того...» — а потом уже и ничего не было, и сам он забывал, думая, что все уже выговорил...»*

Saidaxmad Siddiqiy bu parchani juda mohirona tarjima qiladi:

“*Akakiy Petrovichga yuzlangach:- “Ana, men, senga, Petrovich, mana bo‘l” deb so‘zga boshladi. Shunisini ham bilmak kerakki, Akakiy Akakiyevich so‘zlaganda jumalarni cho‘zib, zamir odatlarni ko‘p ishlatar edi. Faqat uzun so‘zning kichkina bir mazmuniga xizmat qilg‘oni, gapirib bo‘lg‘ondan keyin sizlar edi. So‘zlab turg‘on ishining ahamiyati ko‘proq bo‘lsa, ul gapini yana ko‘prak cho‘zar edi:” To‘g‘risi, ushbu ish haqiqattan falon..” deb, so‘zimni aytib bo‘ldimmi deb o‘z-o‘ziga o‘ylab ham qolar edi.”*

Asarning asosiy mavzusi bo‘lgan “mayda odam” mavzusini yanada yoritib bergan parcha - bu qissaning kulminatsion nuqtalaridan biri, ya‘ni Akakiy Akakiyevichning joni uzilishi sahnasi va avtorning shu ondagi lirik chekinish tarzidagi hislari bayonidir:

*«...И Петербург остался без Акакия Акакиевича, как будто бы в нем его и никогда не было. Исчезло и скрылось существо, никем не защищённое, никому не дорогое, ни для кого не интересное, даже не обратившее на себя внимания и естество-наблюдателя, не пропускающего посадить на булавку обыкновенную муху и рассмотреть её в микроскоп; существо, переносившее покорно канцелярские насмешки и без всякого чрезвычайного дела сошедшее в могилу, но для которого все же таки, хотя перед самым концом жизни, мелькнул светлый гость в виде шинели, ожививший на миг бедную жизнь, и на которое так же потом нестерпимо обрушилось несчастье, как обрушивалось на царей и повелителей мира...».*

Parcha tarjimon tomonidan erkin tarzda, ammo asarning ruhiyati va kayfiyatini to'raligicha saqlagan holda bayon etilgan. Ammo tarjimonimiz bu o'rinda ozgina noaniqlikka yo'l qo'yganlar: Peterburg Akakiy Akakievichsiz qoldi deyish o'rniga, Petrovich so'zi ishlatilgan. «.. *Исчезло и скрылось существо, никем не защищённое, никому не дорогое, ни для кого не интересное, даже не обратившее на себя внимания и естество-наблюдателя, не пропускающего посадить на булавку обыкновенную муху и рассмотреть её в микроскоп; существо, переносившее покорно канцелярские насмешки и без всякого чрезвычайного дела сошедшее в могилу...*» parchasi esa umuman e'tiborsiz qoldirilib tashlab ketilgan. Uning o'rniga qisqa qilib "...*Tabiat mufattishlari bir qancha mulohaza bilan qarab yurg'onlari holda, bu bechorani bir chibin darajasida ham ko'rmadilar...*" deb qo'yilgan xolos. Asarda har bir so'z va har bir iboraning avtor uchun ahamiyati beqiyos. Ayniqsa, buyuk asarlar tarjimasini jarayonida bunga katta e'tibor bilan yondoshish zarur, deb o'ylayman. Har bir asarni bir konstruksiya deb qabul qilsak, ushbu konstruksiyani bir joydan boshqa erga siljitish jarayonida bizning nazdimizda ahamiyatsizdek tuyulgan biror bir detalni olib tashlashimiz keyinchalik ushbu konstruksiya o'z vazifasini bajara olmasligiga yoki umuman ishlay olmasligiga olib kelishi mumkin.

*"...Akakiy Akakiyevichni tuproqqa topshirdilar. Petrovich Akakiysiz qoldi. Bu o'lim unda hech bir zamon bunday bir kimsa dunyoga kelmagan va o'tmagandek ko'rindi. Hech bir kishi unga aching'on ko'rinmadi. Hech taasufg'a og'iz ochmadi. Tabiat mufattishlari bir qancha mulohaza bilan qarab yurg'onlari holda, bu bechorani bir chibin darajasida ham ko'rmadilar. Ammo umri tamom bo'lish oldida oz bir zamon shinel siratida tajassum etib kelgan mehmon toqatdan tashqari qattiq bir hol va hodisaga uchrab, dunyoning boshig'a urulg'ondek barbod va pobud bo'lib ketdi, unutildi..."*

Shuni aytishimiz kerakki, bu buyuk ijodkor, shoir, insonparvarlikni madh etgan ajdodimiz, o'zining buyuk zamondoshlari bo'lmish Fitrat, Cho'lpon, Oybek kabi shaxslar bilan bir safda turib, o'zining o'tkir zehni, zukkoligi, keng dunyoqarashi va matonati bilan o'zbek adabiyotiga, ayniqsa, o'zbek tarjimonlik maktabining yaratilishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi.

## **XULOSA**

20-30- yillardagi jurnallarda nashr etilgan tarjima asarlar orqali nafaqat boshqa xalqlar adabiyoti, san'ati o'rganildi, balki ularning yashash tarzi, tarixi, iqtisodi, maishiy hayoti ham o'rganildi. Millatlararo hamdo'stlik rivojlandi. Bunda, albatta, «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalining ham o'rni beqiyosdir. 20-30-yillar o'zbek adabiyoti taraqqiyotida asosiy o'rin tutuvchi rus, ingliz, xitoy, turk, ozarbayjon, tatar va tojik tillaridan tarjima qilingan asarlar, maqolalar aynan shu jurnalning "G'arb adabiyoti", "Adabiyot" ruknlari ostida nashr etib borildi. Yuqorida nomlari berilgan va tahlilga tortilgan tarjima asarlarining aksariyati rus tilidan qilingan tarjimalardir. Umuman olganda, ushbu jurnal XX asr boshlaridagi o'zbek davriy matbuoti, tarixi, adabiyoti, maorif va madaniyati bo'yicha muhim manbalaridan biridir. 20 yillarda rus klassik va revolyutsion adabiyotidan qilingan tarjimalar o'sha davr o'zbek adabiyotida muhim voqealar bo'ldi va ikki muhim vazifani bajardi.

1. O'zbek kitobxonlarining rus adabiyotiga bo'lgan mehrini orttirdi.
2. Yosh ijodkorlarga esa tajriba maktabini o'tadi.

## **REFERENCES**

### **Kitoblar**

1. Professor Naim Karimov bilan olib borilgan suhbatdan
2. Sirojiddinov S. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – B.9-10.
3. Лермонтов М.Ю. Поэзия. – Ленинград: Детская литература.1981,78с. .
4. Umarov A. 20-yillarda rus adabiyotidan qilingan tarjimalarga doir.Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. – Toshkent : G'ofur G'ulom,1973. – B. 195.
5. Otaboeva M.Tarjimada muallif uslubini saqlash muammolari.// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022. –№ 1. –B. 96 .
6. Гогол. Шинель. – Петербург: Народная польза, 1902. – Б.1-36.

### **Jurnallar**

7. Thokur R. Suba. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali. – Toshkent, 1925. – № 9-10. – B. 79-86.Tarjimon Cho'lpon.

8. Lermantov. Munozara. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Toshkent, 1925. – № 11-12. – B. 85-89. Tarjimon Erkin
9. Gogol. Stipan Razin. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Samarqand, 1926. – № 5. – B. 29-30. Tarjimon Suboy
10. Imzosiz. Xun-chi-fu. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Samarqand, 1927. – № 3-4. – B. 25-28. Tarjimon Ziyos Usmoniy.
11. Lermantov. Lermantovdan. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Toshkent, 1925. – № 9-10. – B. 72.
12. Gogol. Shinel. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Samarqand, 1926. – № 1. – B.35-41. Tarjimon Ajziy.
13. Gogol. Shinel. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Samarqand, 1926. – № 2. – B.50-53. Tarjimon Ajziy.
14. Gogol. Shinel. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali. – Samarqand, 1926. – № 3. – B.22-23. Tarjimon Ajziy.

#### **Vebsayt**

15. Гогол.Н.В. «Шинел»:сюжет и краткое содержание по частям повести. //Сезоны года .журнал – Петербург: История создания, хттпс://сезоны-года.рф.



“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”.  
Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2022. – 816 b.

**ISSN 2181-1784**

Mazkur to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida “Oriental Renaissance” MChJ tomonidan ta'sis etilgan “**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES** (oriens.uz)” ilmiy jurnalining 2-bo'lim 7-soni o'rin egallagan.

**Mas'ul muharrir:**  
**falsafa fanlari nomzodi, dotsent M. Qodirov**

**Ilmiy kotib:**  
J.B. Sulaymonov  
SH.N. Pulatov  
I.R. Ikramova

**Texnik muharrir:**  
Sh.S.Jurayev

